

Chet el fuqarolari uchun mahalliy soliqlar to'lovi haqida ma'lumot



Ma'lumot uchun Ansan shahridagi Soliq idorasi **031-000-0000**



Oddiy va qulay Mahalliy Soliq To' lov usuli!



To'lov har qanday bank orqali qulay amalga oshirilishi mumkin.

- Siz to'lovni mamlakatning istalgan joyidan va istalgan bankdan amalga oshirishingiz mumkin. Buning uchun to'lov qog'ozini olib kelsangiz kifoya.
- Agar siz soliq to'lov qog'ozini olib kelmagan bo'lsangiz, to'lovni kredit karta yoki elektron bank kitobidan amalga oshirishingiz mumkin.
(To'lovlar banklarning CD/ATM bo'limlarida amalga oshirilishi mumkin.)



Shuningdek to'lovlar internet orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Wetax www.wetax.go.kr, internetdagi sahifa

※ Buning uchun sizga a'zo bo'lish va moliya institutida akreditatsiyadan o'tgan sertifikat kerak bo'ladi.



To'lov belgilangan hisob raqamga maso- fadan turib amalga oshirilishi mumkin.

Belgilangan hisob raqam yoki depozitga bank kitobchasiz masofadan turib pul jo'natish

※ Soliq to'lov qog'ozining ustida hududiy idoralar tomonidan belgilangan hisob raqami mavjud

Agar mahalliy
soliqlarni
to'lamasangiz bir
qator muamm
olarga duchor
bo'lasiz.



Maosh, bank jamg'arma, uy-joy ijara va sug'urta nafaqalar uchun xavfsizlik depoziti, va hokazolar bloklanishi mumkin.

- Shaxsiy avtomobil hamda ko'chmas mulkingiz kim oshdi savdosiga qo'yilishi mumkin
- Qo'shimchasiga, viza muddati hamda biznes faoliyat-ingizni amalga oshirishingiz uchun beriladigan litsenziya muddati qisqartiriladi.



Shuni alohida qayd etish kerakki, agar siz avtomobil solig'ini to'lamasangiz mashinan- ing davlat raqami olib qo'yiladi

※ Agar siz mashinani davlat raqamisiz haydasangiz, eng kamida 1 million Von jarima to'laysiz



Mahalliy soliqlar nima o'zi?

Bu soliqlar mahalliy avtonom hokimyatning barcha fuqarolari to'laydigan soliqlar bo'lib, bu soliqlar orqali mahalliy avtonom hokimyat unda yashovchi aholining yashash tarzi hamda atrof muhitning holatini yaxshilash uchun keng ko'lamli ishlarni amalga oshiradi.

Mahalliy soliqlar qatoriga fuqarolik, avtomobil, mulk, daromad va hokazolar kiradi

Chet el fuqarolari ham mahalliy soliqlarni to'laydimi?

Chet el fuqarolari ham huddi mahalliy aholi singari o'zlariga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk, avtomobil, daromad va boshqa soliqlarni to'lashi shart.

Siz to'laydigan mahalliy soliqlar chet el fuqarolarining yashash tarzini yaxshilash hamda yangi ish o'rinlarini yaratish uchun sarflanadi.

Agar siz mahalliy avtonom hokimyatning yurisdiksiyasida rasman ro'yxatdan o'tgan bo'lsangiz, yilda bir marta

Avgust

oyida **rezident solig'**

ini to'lashingiz kerak.



So'liq to'lovchi

Koreyada rasmiy ro'yxatdan o'tgan chet elliklar manzili (oila boshlig'i)

※ Chet elliklar bilan birga yashaydigan oila a'zolari bundan mustasno.

Soliq miqdori 5000 Von

Har yili avgust oyining 1 sanasida

To'lov qabul qilinadigan kunlar

Har yili 16-31 avgust

Agar siz avtomobil yoki ko'chmas mulk harid qilsangiz bu haqida

60 kun

ichida **ma'lum qilishingiz kerak** va

mulk solig'i

to'lashingiz kerak.



So'liq to'lovchi

Avtomobil va ko'chmas mulk harid qiluvchilar

To'lov usuli Sotib olingan mulk hisobotini tegishli shahar yoki tuman soliq idorasiga mulkni o'z nomingizga rasmiylashtirgan kundan boshlab 60 kun ichida taqdim etishingiz kerak.

Agar sizning avtomobilingiz bo'lsa,

Iyun va Dekabr

oylarida belgilangan

Avtomobil solig'ini

to'lashingiz kerak.



So'liq to'lovchi

Avtomobilni rasmiy ro'yxatdan o'tkazgan sohibi

Soliq to'lov sanasi 1-Iyun va 1-Dekabr

To'lov qabul qilinadigan kunlar

Yilda ikki marta to'lanadi

(agar 100 000 Von dan kam bo'lsa bir marta)

Birinchi yarim yillik 16-30 Iyun

Ikkinchi yarim yillik 16-31 Dekabr



Eslatma: Agar siz avtomobil solig'ini oldindan to'lasangiz 10% chegirmaga ega bo'lasiz.



Ministry of the Interior



ANSAN